

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon Davlat Universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

**SAHNA HARAKATI VA JANGI
FANINING O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200000	- San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	201000	- San’at
Ta’lim	60211100	- Aktyorlik san’ati: dramatik teatr va kino aktyorligi, estrada aktyorligi, musiqali teatr aktyorligi, qo‘g‘irchoq teatri aktyorligi
yo‘nalishi:	60211200	- Rejissyorlik: dramatik teatr rejissyorligi, estrada va ommaviy tomoshalar rejissyorligi, musiqali teatr rejissyorligi, qo‘g‘irchoq teatri rejissyorligi

Fan/modul kodi SHJ20018		O‘quv yili 2025/2026	Semestr 3-4-5-6	Kreditlar 2-2-2-2	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sahna harakati va jangi	120		120	240
2.	I. Fanning mazmuni. Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarga sahnada va kamera oldida harakat va sahna jangi texnikalarini xavfsiz va dramatik tarzda amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish, aktyorlik mahoratini jismoniy ifoda bilan boyitish, sahnada qanday hatti-harakat qilishni, musiqani eshitish va musiqaga mos harakatlanish, musiqiy ritm, har bir davrga xos bo‘lgan salomlardan tashqari, sahnaviy mushtlashuv texnikasini, sahna qilichbozligi va kechinmani ifodalovchi ichki va tashqi holatlar yaratish, sahnaviy mushtlashuv va sahna qilichbozligiga oid bo‘lgan malakalarni yaratishga qaratilgandir. Fanning vazifasi – talabamning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, turli xalqlarning turli davrdagi jang san’atini amaliy o‘qitish, talabalarning ijro imkoniyatlarini aniqlash va faollashtirish. Talabalarga personajlar xarakterini topishda o‘zining plastic imkoniyatidan foydalanish, janrga mos xatti-harakatlar topish kabi amaliy ko‘nikmalarni kasbiy faoliyatida olishiga erishish. Fan dasturi yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlarining fan dasturlari asosida tayyorlanganligi: (University of Southern California, 134-o‘rin), (University of Florida, 168-o‘rin), The Art of Stage Combat (SAFD asosida) professional sahna jangi tashkiloti, xalqaro tan olingan. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: 1. Jismoniy tayyorgarlik va tanani boshqarish - Anatomiya va tananing harakat mexanizmlarini tushunish - Nafas olish, muvozanat va markaziy og‘irlik ustida ishlash - Tanani sahnadagi ifoda vositasi sifatida shakllantirish 2. Sahna jangi (Stage Combat) - Xavfsiz jang texnikasi: qo‘lda, qilich, xanjar, tayoq bilan - Koreografiyalangan jang sahnalarini yaratish - Emotsional va dramatik kuchni jangda ifoda etish - Professional jang instruktorlari bilan ishlash (masalan, BASSC – British Academy of Stage & Screen Combat) 3. Hamkorlik va ansamblda ishlash - Sahnadagi boshqa aktyorlar bilan xavfsiz, sinxron harakat - Harakatda ishonch va jamoaviy ritmni rivojlantirish - Harakat orqali "scenography" va mizansceni yaratish 4. Pedagogika va tahlil - Harakatning dramaturgik o‘rni va tahlili				

- **Sahna jangi sahnalari uchun dramaturgik asos yaratish**

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

O'quv rejada nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) nazarda tutilmagan

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Fan haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari, talabalar bilan umumiy jismoniy tanishuv.
2. Koordinatsiya mashqlari.
3. Gimnastik yog'ochlar va patnoslar bilan mashqlar.
4. Kichik to'plar va sakragich arqonlar bilan mashqlar.
5. Harakatli yurushlar. (paxodka)
6. Akrobatika mashqlari.
7. Yiqilislar, dumalshlar.
8. Tarixiy salomlar. Etiketlar.
9. Sahnaviy mushtlashish texnikasi. Sahnaviy sherik (Partnyor) bilan mashqlar.
10. Umumiy guruh uchun mashqlar.
11. Egiluvchanlik mashqlari.
12. Murakkab yiqilishlar. Akrobatika mashqlari (partnyor bilan).
13. Anjomlar bilan mashqlar. Murakkab jang mashqlari.
14. Musiqa ostida plastik harakatlar.
15. Tempo-ritm, tezlik mashqlari. Kuch bilan qarama-qarshilik mashqlari.
16. Tayoq xassa va bosh kiyim bilan bajariladigan mashqlar.
17. Plashlar bilan bajariladigan mashqlar.
18. Molyer asarlarida tarixiy salomlashish.
19. Sahnaviy sherik (partnyor)lar bilan bajariladigan mashqlar.
20. Sahnaviy mushlashuv elementlari.
21. Sahna jangi (mushtlashish).
22. Sahna jangi tarixi, tarixiy qurollar va ularning turlari.
23. Tarixiy davrlarga xos qilichbozlik usullari, qurollar bilan estetik mashqlar.
24. Qurollar bilan mashq qilish. Qadamlarda harakatlanish, himoyalar.
25. Keskin qadam tashlash usullari.
26. Zarba berish mashqlari.
27. Juft-juft bo'lib raqibga zarba berish.
28. Qilichlar bilan himoya olish mashqlari.
29. Joyida turib sanchish mashqlari.
30. Harakatda oldinga va orqaga yurib sanchish mashqi.
31. Katta keskin qadamlarda ritmik sanchish mashqi.
32. Sirg'altirib sanchish mashqi, oldiga yurib ritmik zarba berish.

33. Qilich bilan 2-himoyaga sanchish va undan aylana himoya olish. Qurolga keskin zarba berish (otbiv).
34. Katta qadamlarda yurib 2 va 7 himoyalarga sanchish va undan himoya.
35. O'rta zarba va 2 ta pastga sanchish va undan himoyalaniş mashqari.
36. Aralash xujum mashqlari: oldinga va orqaga yurib zarba va sanchish.
37. Keskin zarba (qurolga ta'sir) berish (batman) va undan sakirab himoyalaniş.
38. Xanjarda hujum va himoya mashqi.
39. Jangda plashdan foydalanib xujum qilish va undan himoyalaniş.
40. Shpaga va xanjar qurollarida "o'quv janining" I va II qismlari.
41. O'quv jangining III va IV-qismlari. O'quv jangi va uning tugashi.
42. O'quv jangining barcha qisimlarini qo'shgan holda yakka jang.
43. O'tilgan mashqlardan kichik jang qilish sxemasi.
44. Ommaviy jang. Jang davomida texnik harakatlar.
45. Tarixiy qurollarda (qilich va qalqon, nayza va qilich, xanjar) jang qilish usullari.
46. Sahnaviy jang. Sharqona tarixiy qurollarda harakatlanish.
47. Qilich va qalqon bilan yakka jang qilish.
48. Nayzalar bilan jang qilish usullari.
49. Nayza, qalqonda etyudlar tayyorlash.
50. Bir kishi ikki kishiga qarshi jang qilish usuli.
51. Jangavor etyudlarda plashlardan qurol sifatida foydalanish.
52. Etyudlarda xanjarlar bilan jang.
53. Sharqona jang sahnalashtirish.
54. Etyudlarda Amir Temur davri jang san'ati.
55. Tarixiy og'ir qurollarda jangovor etyud.
56. Nayza hamda oybolta bilan jangovor etyud.
57. Shekspir asarlari asosida etyud.
58. Molyer asarlari asosida etyud.
59. Ommaviy jamoa bilan umumiy jang.
60. Mustaqil ishlar ko'rigi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Hatti-harakat, nutq va ichki hissiyotlar ifodaviyligi
2. Sahna kompozitsiyasini his qilish
3. Sahnaviy erkinlik
4. Sahnaviy etiketlar
5. Jang, uslub, spektakl va qaxramonning tempo-ritmi.
6. Spektakl davomida uzluksiz xatti-harakatga erishish.
7. Spektaklda qahramon xarakteri

	8. Timsoliy (obrazli) fikrlash, tinsolning ildizini (zerno obraza) toppish 9. Aktyorning jismoniy erkinligi 10.Oddiy koordinatsion harakatlar 11.Tarixiy qurollar 12.Tarixiy qahramonlar xarakteri 13.Hotirani rivojlantiruvchi mashqlar 14.Sahnada buyimlar bilan xatti-harakat qilish 15.Yengil akrobatik mashqlar 16.So‘zsiz xatti-harakat 17.Qomat ustida ishlash 18.Sahna qilichbozligi texnikasi 19.Sahnaviy mushtlashuv texnikasi 20.Harakatlarni musiqaga moslash 21.Berilgan musiqaga mos harakatlarni topish 22.Jangga mos harakatlarni tanlash 23.Davr va qahramon xarakteridagi uyg‘unlikni toppish 24.Yakka jangdagi tezkorlik va epcillik 25.Ikki kishiga qarshi kurashishda sahnaviy harakatlar 26.To‘rt kishiga qarshi jang qilish usullari 27.Ommaviy jangda sahnaviy sherik bilan ishlash 28.So‘ngi zarbani ijro etish 29.Jangning yakunidagi harakatlar 30.Nayza hamda oybolta bilan jangovor etyud tayyorlash
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakillanadigan kompetensiyalar) <i>Fanni o‘qitish natijasida talabalar:</i> • Sahnaviy xatti-harakat sirlari, sahna jangi elementlari tasavvurga ega bo‘lishi; • “Qo‘l jangi”, “Harakat va so‘z uyg‘unligi”, “XVI-XVII asrlar yevropa qilichbozligi”, “Tarixiy davrlarga xos qilichbozlik”, teatr sahnasi va kino san’atidagi jang qilish usullarini bajarish va kichik jangovor etyudlar sahnalashtirishni bilishi va ulardan foydalana olishi; • Talaba ijodiy jarayonlarda harakat mazmunini tahlil qilish usullarini qo‘llash, ijro etish; • Tana harakatlarini ongli boshqarish; • Muvozanat va og‘irlik markazini boshqarish; • Nafas va harakatni sinxronlashtirish;

	• Energiya oqimini sahnada ifoda etish; • Qurolsiz va qurolli (rapira, qilich, tayoq, xanjar) jang ko'nikmalari; • Realistik, lekin xavfsiz harakatlar bilan to'qnashuvlarni ifodalash; • Jang koreografiyasini eslab qolish, bajarish va yaratish; • Sahnadagi zo'ravonlikni estetik va dramaturgik asosda ko'rsatish; • Harakat va tana orqali xarakter yaratish (physical characterization); • Psixologik holatlarni tanaviy ifoda etish (fear, tension, joy); • Obraz va mizatsena orqali "visual storytelling" olib borish; • Sahnadagi sheriklarga ishonish va koordinatsiya qilish; • Partnering: Harakatda javobgarlik, ritm va xavfsizlikni ta'minlash; • Ensemble work: Guruh bilan sinxron harakat qilish; • Harakatlar ortidagi ma'no va emotsional kuchni tahlil qilish; • Jang yoki harakat sahnalarini mezotsena bilan uyg'unlashtirish; • Harakat orqali dramatik holat yaratish; • Mashg'ulotlar tuzish, xavfsizlik qoidalarini tushuntirish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • Amaliy mashg'ulotlar; • Guruhlarda ishlash; • Ijodiy taqdimotlar; • Jamoa bo'lib ishlash; • Mustaqil tayyorlangan ijodiy (kombinatsiya, mashq, jangovor etyud) ishlarinihimoya qilish; • Har bir mashg'ulot real harakat mashqlari asosida tashkil etiladi; • O'qituvchi namoyish qiladi, talaba takrorlaydi, tahlil qiladi; • Tana xotirasi (muscle memory) orqali ko'nikma shakllantiriladi;
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

	Joriy shaklda berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha amaliy-ijodiy ishni muvaffaqiyatli topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. A.F.Ismoilov, D.Ismoilov, Sh.Usmonov "Sahna harakati va jangi" darslik Navro'z. 2015 y. 2. Ismoilov A.F. "Sahna qilichbozligi". o'quv qo'llanma. –T.: "Voriz" nashriyoti, 2007. 3. Sh.Usmonov "Sahna harakati va jangi". o'quv qo'llanma. –T.: "Navrz" nashriyoti, 2014. 4. R.R.Dosanov. "Sahna harakati". o'quv qo'llanma. –T.: Ilmiy texnika axboroti-press. 2018 y. Qo'shimcha adabiyotlar: 1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 yil 2. Mirziyoyev Sh.M.Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. 2017 yil 3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va faravon, demokratik zbekiston davlatini birgalikda quramiz.2017 yil 4. 2017-2021 yillarda zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor ynalishi byicha HARAKATLAR STRATEGIYASI. 5. Kox I.E. – "Ssenicheskoyedvijeniy" - 1970 y. 6. Nemirovskiy A. B. – "Plasticheskaya virazitelnost aktyora". –M.: – 1976 y. 7. Kristi G.–"Vospitaniye aktyorov shkoli Stanislavskogo". –M.: -1976y. 8. O.Ostanina "Ritmika i plastika" T., 2015 y. Axborot manbalari: 1. http://www.lex.uz 2. http://www.senat.uz 3. http://www.gov.uz 4. http://www.mtdp.uz 7. http://www.parliament.uz 8. http://www.ziyonet.uz
7.	Fan dasturi Qo'qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025 yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari: M.A.Komilov - Qo'qonDU "San'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi O.R.Anvarov - Qo'qonDU "San'atshunoslik" kafedrası o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: Sh.Y.Usmonov - Qo'qonDU "San'atshunoslik" kafedrası professori

	R. R.Do'sanov – O'zDSMI "Sahna harakati va jismoniy madaniyat" kafedrası dotsenti, PhD
--	---